

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING BOLALAR MASALALARI BO`YICHA TUMAN (SHAHAR) MILLIY KOMISSIYALAR BILAN O`ZARO HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

*IIV Akademiyasi 3-bosqich 312-guruh kursanti
Yusupov Javohir Javlonbek o`g`li*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining Bolalar masalasi bo`yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar faoliyatining tushunchasi, mazmuni, bu faoliyatga qo`yiladigan talablar bayon etilgan. Muallif tomonidan bu boradagi qonun xujjatlari, huquqni qo`llash amaliyoti tahlil qilingan hamda mavjud muammo va kamchiliklar va ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

ANNOTATION

This article describes the concept, content, and requirements for the activities of preventive inspectors of district (city) national commissions on children.

The author has analyzed legal documents and law enforcement practices in this regard, and put forward suggestions and recommendations regarding existing problems and shortcomings and their elimination.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрыты понятие, содержание и требования к деятельности инспекторов-профилакторов районных (городских) республиканских комиссий по делам детей. Автор проанализировал правовые документы и правоприменительную практику в этой связи, а также выдвинул предложения и рекомендации относительно существующих проблем и недостатков и их устранения.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021yilning 27 yanvar kuni o`tkazilgan yig`ilishda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta`minlash, ularni har tomonlama qo`llab-quvvatlash va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda “fuqarobay” ishlash bo`yicha yangi tizimni tashkil etish va kambag`allikni qisqartirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Shu munosabat bilan, respublikamizda ichki ishlar organlarini jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta`minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini har qanday ko`rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi qilib belgilandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yilning

12 fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyshtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Prezidentning hududlarga tashrifi davomida mutasaddi rahbarlarga aholi bandligini ta'minlash, turmush tarzini yaxshilash bo'yicha bergen topshiriqlaridan kelib chiqib, mahallalarda "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolar bilan ishlashda yangi tizimni joriy etishzarurligi ta'kidlandi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri Buxoro viloyati ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarining holatiga baho berish, chekka hududlarda joylashgan mahallardagi vaziyat, huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish borasida yangi tartib-tamoyillarning joriy etilayotganligi, jinoyatchilikni jilovlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash hamda tarbiyaviy ta'sir choralariga muhtoj bo'lgan alohida toifadagi shaxslar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish, profilaktika inspektorlarining ish sharoiti va aholi muammolarini hal etilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Profilaktika inspektorlarining Bolalar masalasi bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar faoliyatida bir nechta muammolar aniqlanmoqda. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi tamoyili asosida ishni qayta tashkil etish muhim ahamiyat kasb etishiga qaramasdan hanuzgacha Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar va uning oldini olish, profilaktika inspektrori bevosita aholi bilan ishlash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati, bevosita aholi bilan qayta aloqa mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilmagan.

Mamlakatimizda Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar va uning oldini olish sohasida strategik tusdagi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emas va shu sababli mavjud mexanizmlar o'zaro muvofiqlashtirilmagan.

Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligiga quyidagi omillar o'z salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda:

- moddiy va xodimlar soni nuqtai nazaridan resurslarning cheklanganligi barcha toifadagi jinoyatlarga nisbatan toifalanmagan munosabatda bo'lish imkoniyatini bermaydi;
- barcha toifadagi jinoyatlarga birdek munosabatda bo'lishga intilish esa, jinoyatlarni oldini va qarshi kurashish borasidagi vazifalarining sifatsiz bajarilishiga olib kelmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish, xususan, shaxsning jinoyat protsessidagi huquqlarini ta'minlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, jinoyatdan bevosita jabrlangan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularning jinoyat

qurbaniga aylanishiga olib kelgan jarayonlarni o'rganishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti.

– jinoyat qurbanlariga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilishning davlat tomonidan kafolatlashning huquqiy mexanizmlarinitakomillashtirish zarurati mavjud.

Bugungi kunda profilaktika inspektrorining Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va kuchlarni to'g'ri taqsimlash asosan jinoiy-huquqiy statistik ma'lumotlarga tayangan holda olib borilmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda "ekotizimli yondashuv", ya'ni jinoyatchilikning kelib chiqishini barcha ijtimoiy omillarini kompleks tadqiq etish (kriminologik, psixologik, sotsiologik, marketing, iqtisod, arxitektura va b. sohalarda) yo'lga qo'yilmagan.

Ushbu muammolarini hal etish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ayniqsa ichki ishlar organlari va milliy gvardiya faoliyatiga "jamiyat manfaatlariga asoslangan faoliyat olib borish" konsepsiyasini ("community oriented policing") joriy etish borasida qo'shimcha tashkiliy choralar ko'rish. Bunda:

- mahalla ahli va fuqarolar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali joylardagi muammolarni hal qilish va ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchni yuksaltirish (aholining o'zi jamoat tartibi va xavfsizligiga oid ustuvor muammolarni belgilashda va ularni bartaraf etishda ishtirok etishi muhim);

- aniqlanayotgan muammolarni proaktiv va tizimli ravishda o'rganish (aniqlash, tahlil qilish, yechimlar ishlab chiqish, samarasini baholab borish) orqali yechimlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligiga erishish;

- ushbu ikki yo'nalishga qaratilgan IV va MGning tashkiliy transformatsiyasini (rahbarlarni va xodimlarni maxsus o'qitish, ichki muhit va madaniyatni yuksaltirish, ma'lumotlar sifati va ochiqligini ta'minlash, qayta aloqa kanallarini yaratish va qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilish yondashuvlarini o'zgartirish, faoliyatni aholining fikri asosida baholash, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish) amalga oshirish.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasining Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar va huquqburzaliklarning oldini olish bo'yicha strategiyasini ishlab chiqish va unda quyidagi masalalarni ko'zda tutish:

– Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar va huquqburzaliklarning oldini olishning asosiy yo'nalishlari, tamoyillari va bu borada vakolatliorganlarning vazifalari;

– davlat va jamiyat uchun xavf darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlartoifalarini belgilash, masalan:

terrorizm va ekstremizm; uyushgan jinoyatchilik; korrupsiya; shaxsga qarshi o‘ta og‘ir jinoyatlar va shu kabi boshqalar.

- mavjud resurslarni jinoyatlarning toifalaridan kelib chiqib manzilli yo‘naltirish;
- ma’lumotlarning chuqur tahlili asosida jinoyatlarni prognozlash vazifasini amalga oshiruvchi dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqilishi va amaliyatga joriy etilishi;
- jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni moliyalashtirishga qaratilgan jamg‘arma tashkil etish.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamining jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga, birinchi navbatda, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minalash sohasidagi muvofiqligi nuqtai nazaridan kriminologik ekspertizasining huquqiy asoslari (maqsadi, vazifalari, prinsiplari, ob’ektlari va sub’ektlari, tartibi va b.)ni belgilab berish.

Jamoat tartibini saqlash, profilaktika inspektroriva jinoyatchilikka qarshi kurashishning ahvolini tadqiq qilish va baholashda BMT tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyotlar asosida kompleks tarmoqlararo “ekotizimli yondashuv”ni joriy etish.

Komissiya yig‘ilishi bayonnomasida yig‘ilish bo‘lgan sana va joy, ishning mazmuni, unda ishtirok etgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ular bergan izohlarning qisqacha mazmuni, ishga oid boshqa ma’lumotlar, qo‘llanilgan ta’sir ko‘rsatish chorasi, shuningdek, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat berish tartibi va muddatlarini tushuntirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bayonnomada raislik qiluvchi va komissiyaning mas’ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Hududiy, tuman (shahar) komissiyalari qarorlari yozma shaklda, dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

Profilaktika inspektorlarining Bolalar masalasi bo‘yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar faoliyatini takomillashtirish takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, avvalo Profilaktika inspektorlarining Bolalar masalasi bo‘yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar faoliyati bugungi kun talabiga to‘liq mos kelmosligi bois huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlarning o‘zaro xamkorligi o‘g‘ri tashkil qilinmayapti. Kelgusida komissiyalarning vazifalarini aniq belgilash lozim.

Ikkinchidan, Profilaktika inspektorlarining Bolalar masalasi bo‘yicha tuman (shahar) milliy komissiyalar jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish, ularning oldini olish va ularga barham berish amaliyatini o‘rganish. O‘rganish natijasida tegishli idoralarga bajaralishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqini berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoev Sh.M.* Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi – Xalq so‘zi. 2021., 15.12.2016.
2. *Mirziyoev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. //
3. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. 15.01.2017 – Xalq so‘zi. 2021 yil 16 yanvar .
4. *Mirziyoev Sh.M.* Inson manfaatlarini ta’minalash uchun avvalo uning huquq va erkinliklari, osuda va farovon hayoti himoya qilinmog‘i kerak: 2017yil 9 fevral kuni ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan videoelektor yig‘ilishidagi ma’ruza. // Xalq so‘zi. – T., 2017. 10-fev.
5. *Mirziyoev Sh.M.* Jismoniy va ma’naviy utuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi – Xalq so‘zi. 2021., 1 iyul
6. *Mirziyoev Sh.M.* Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumandagi ma’ruzasi 15.07.2017 – Xalq so‘zi. 2017., 16 iyul
7. Xo‘jaqulov S.B. Huquqbazarliklar umumiyligi profilaktikasi usullarining ilmiy amaliy tahlili // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2021. - № 4. 49 b.
8. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi).
9. <http://press-service.uz/uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti).
10. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi).
11. <http://akadmvd.uz> (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).